

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ARIPXODJAYEVA NARGIZA URMANOVNA**

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA**  
**KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UO‘K: 658.01:6П8 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economics Sciences**

**Aripходjayeva Nargiza Urmanovna**

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv  
mexanizmini takomillashtirish ..... 3

**Арипходжаева Наргиза Урмановна**

Совершенствование механизма корпоративного управления в  
деятельности предприятий пищевой промышленности ..... 25

**Aripkhodjaeva Nargiza Urmanovna**

Improving the mechanism of corporate governance in the activities of  
food industry enterprises ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ARIPXODJAYEVA NARGIZA URMANOVNA**

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA**  
**KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.I.PhD/Iqt3884 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Umarxodjayeva Muyassarxon Ganiyevna  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:** Suyunov Dilmurod Xolmurodovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamidulin Mixail Borisovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "14" 06 kuni soat 14.00dagi majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (1457 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 3 » 06 kuni tarqatildi.

(2024-yil « 21 » 05 dagi 18 raqamli restr bayonnomasi).



**G.K. Abduraxmanova**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**O.D. Djurabaev**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),  
dotsent.

**R.X. Karlibayeva**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda jadallashib borayotgan globallashuv, milliy iqtisodiyotning xalqaro savdoga ochiqligi va innovatsiyalarning o‘shishi jarayonlari korporativ tizimlar faoliyatining kengayib, davlat tomonidan tartibga solish meyor va qoidalarining ham takomillashib borishini taqozo etmoqda. Xususiylashtirish jarayoni yirik tadbirkorlik subyektlarining korporativ boshqaruvga faol o‘tishiga yordam bermoqda. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida biznesni tashkil etishning korporativ shakli jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida eng samaralisi sifatida keng tarqaldi. “Umumiy holda korporativ boshqaruv korporativ tuzilmalarning amal qilishi ishtirokchilari – aksiyadorlar, menejerlar, kreditorlar, xodimlar, ta’minotchilar, xaridorlar, ijro va qonunchilik hokimiyati organlari vakillari o‘rtasidagi munosabatlar tizimini namoyon etadi. Tanlangan modeldan qat’i nazar, korporativ boshqaruv korporatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga, investitsiyalarni jalb etishga, yuridik va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi”<sup>1</sup>. Xususiylashtirish natijasida yaratilgan korporativ tuzilmalardan barqaror uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash vositasi sifatida butun dunyoda faol foydalanilmoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar faol tarzda olib borilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning turli jihatlari, jumladan, direktorlar kengashining roli, rag‘batlantirish tizimi, shaffoflik va barqarorlikni oshirishning innovatsion yondashuvlari, korporativ boshqaruv mexanizmlari tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, korporativ boshqaruvning yanada samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, korporatsiyalarning uzoq muddatli barqarorligi va muvaffaqiyatini ta’minlovchi qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlash hamda aholi turmush darajasini oshirishda oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘rilayotgan samaralin chora-tadbirlar natijasida 2017 – 2022- yillar mobaynida “oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 31 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1,4 barobarga, sohada bandlik 1,2 barobarga, eksport hajmi esa 3,7 barobardan ziyod oshdi”<sup>2</sup>. Bu borada O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida korporativ boshqaruv sohasida tarmoq korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan samarali foydalanish, xususan, resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishi, tarmoqni rivojlantirishning samarali strategiyasi, shaffoflik va hisobotlarning aniqlik darajasini ta’minlash, mulkdorlar va korxonalar rahbariyati o‘rtasidagi korporativ munosabatlarni takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi oziq-ovqat

---

<sup>1</sup> Бочарова И.Ю., Ганин А.М. Особенности корпоративного управления предприятий по производству пищевых продуктов//Современные проблемы науки и образования. – 2014. – №4; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=14312>

<sup>2</sup> Инфографика: 2017-2022 йилларда Ўзбекистонда озиқ-овқат саноатининг ривожланиши. – <https://review.uz/oz/post/infografika-razvitie-pishevoy-promshlennosti-uzbekistana-2017-2022-gg>

sanoati korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv mexanizmlari samaradorligini oshirish va sohaning yanada o'sishi hamda rivojlanishi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 15-noyabrdagi PQ-10-son "G'alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta'minlashning bozor tamoyillarini joriy etish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son "2021 – 2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Korporativ boshqaruv mexanizmlarini o'rganishning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini C.Xill, T.Jons, O.Uilyamson, M.Jensen, M.Mekling, D.Meyers, S.Smit<sup>3</sup> kabi bir qator xorijlik mualliflarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan .

Korporativ boshqaruv mexanizmlari tadqiqot predmeti sifatida A.G.Dementyeva, V.V.Dolinskaya, E.A.Ivanova, S.P.Kukura, I.S.Karpachev, O.A.Kavirshina, S.A.Masyutina, T.N.Pochekaylo, Y.V.Sharikova, L.S.Rujanskaya<sup>4</sup> va boshqa shu kabi MDH mamlakatlari olimlarining ishlarida ko'rib chiqilgan .

---

<sup>3</sup> Williamson O. The Economic Institutions of Capitalism. The Free Press: N. Y., 1985; Hill C., Jones T. Stakeholder-Agency Theory // Journal of Management Studies. 1992.; Jensen M., Meckling W. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3. N 4. P. 305-360; Mayers D., Smith C.W., Jr. Contractual Provisions, Organizational Structure, and Conflict Control in Insurance Markets // Journal of Business. 1981. Vol. 54. July. N 3. P. 407-434.

<sup>4</sup> Деметьева А.Г. Корпоративное управление: Учебник. – М.: Магистр, 2018. – 848 с.; Долинская В.В. Акционерное право: основные положения и тенденции. – М., 2006. 420 – 421 с.; Иванова Е.А., Шишкина Л.В., Корпоративное управление. – Ростов н/Д: Феникс, 2007. – 256 с.; Ружанская Л.С. Развитие внутренних механизмов корпоративного управления в российских компаниях. – Екатеринбург, издательство Уральского университета 2008. – 208 с.; Кукура С.П. Теория корпоративного управления. – М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2004. – 121 с.; Карпачев С. И. Стратегическое управление отраслевыми холдингами: Дис. ... канд. экон. наук специальности 08.00.05 «Экономика и управление народным хозяйством: менеджмент». – Курск, 2011. – 201 с.; Кавыршина О.А. Экономический механизм корпоративного управления: Автореф. дис... канд.

Korporativ boshqaruvning xususiyatlari va uni takomillashtirishning turli jihatlarini o‘zbekistonlik olimlardan Z.A.Ashurov, B.B.Berkinov, D.B.Begmatova, M.M.Vohidov, S.S.Gulomov, SH.N.Zaynutdinov, A.A.Karimov, SH.S.Muxamadjonov, D.N.Raximova, D.X.Suyunov, B.N.O‘rinov, M.B.Xamidulin, N.K.Yuldashev<sup>5</sup> va boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan .

Biroq keng ko‘lamli tadqiqotlarga qaramay, korporativ boshqaruv mexanizmlarining oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyasiga ta’siri hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan, bu ushbu tadqiqot ishining mavzusini tanlashga sabab bo‘ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatida korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

korporativ boshqaruvning ilmiy-nazariy jihatlarini va prinsiplarini o‘rganish;  
ilmiy-uslubiy yondashuvlar va korporativ boshqaruv mexanizmining mohiyatini tadqiq etish;

O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni rivojlantirishning institusional va huquqiy asoslarini o‘rganish;

korporativ boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va umumlashtirish;

“O‘zdonmahsulot” AK misolida oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish;

---

экон. наук. – Воронеж: ВГТУ, 2006. – 20 с.; Почекайло Т. Н. Формирование организационно-экономического механизма корпоративного управления: Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Тюмень, 2006. – 169 с.; Масютин С.А. Корпоративное управление: опыт и проблемы: Монография. – М.: ООО «Финстатинформ», 2003. – 201 с.; Шарикова Ю. В. Совершенствование процессов слияний и поглощений через механизмы корпоративного управления: Дис. ... кандидата экономических наук: 08.00.05 Сам. гос. эконом. ун-т. – Самара, 2008. – 162 с.

<sup>5</sup> Ашуров З.А. Акциядорлик корхоналарида корпоратив бoshqaruvning ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисод. фан. б. ф.доктори дисс. иши. – Т.: ТДИУ, 2019; Бегматова Д.Б. Совершенствование методов оценки эффективности корпоративного управления в акционерных обществах. Дис. ... д-ра фил.по эконом.наукам. – Т.: ТГЭУ, 2017; Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац.Б-ки Узбекистана им. А.Навои, 2005. – 132 с.; Вохидов М.М. Ўзбекистон акциядорлик жамиятларида корпоратив бoshqaruv тизимининг ҳуқуқий муаммолари ва такомиллаштириш йўллари: Юрид. фан. номз. дисс. иши. – Т.: ТДЮИ, 2007. – 171 б.; Гулямов С.С. Правовые проблемы корпоративного управления: теория и практика: Монография. – Т.: ТГЮИ, 2004. – 271 с.; Зайнутдинов Ш.Н., Рахимова Д.Н. Корпоратив бoshqaruv асослари. – Т.: Академия, 2007. – 48 б.; Каримов А.А. Корпоратив бoshqaruv тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари: Иқт. фан. док. дис. автореф. – Т.: ЎЗР БМА, 2008. – 34 б.; Суёнов Д.Х. Корпоратив бoshqaruv механизми: муаммо ва ечимлар: Монография. – Т.: Академия, 2006. – 116 б.; Уринов Б.Н. Корхоналарда персонални бoshqaruvнинг корпоратив усулидан фойдаланиш самарадорлиги. Иқтисод. фан. б. ф.доктори дисс. иши. – Т.: ТДИУ, 2018-129 б.; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: Дис. ... д-ра экон. наук. – Т.: БФА РУз., 2008. – 256 с.; В.И.Набоков, Н.К.Юлдашев. Основы менеджмента. Учебник. -Т: Уральское Аграрное Издательство, 2021. -252 с.

oziq-ovqat sanoati korxonalarining xo‘jalik va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatiga korporativ boshqaruvning ta‘sirini baholash;

oziq-ovqat sanoati korxonalarining korporativ boshqaruvining optimal modelini ishlab chiqish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlash;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida ESG mezonlarini joriy etish asosida korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini korporativ boshqarishda ESOP mexanizmini joriy etish va qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibiy korxonalarini hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** oziq-ovqat sanoatida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tahlil va sintez, vertikal va gorizontaal tahlil, intervyu, ko‘p omilli regressiya usuli, korrelyatsion tahlil usuli kabi statistik usullar majmuidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xodimlarning korxonadagi mehnat faoliyatining muayyan davri hamda korxonada ishlab chiqarish natija va yutuqlaridagi hissasidan kelib chiqqan holda ularni rag‘batlantirish ko‘rinishida aksiyalar taqdim etib borish orqali ishlab chiqarish va boshqaruvdagi ishtiroki faolligini oshirish taklifi asoslangan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida tarmoq bo‘yicha dividendlarning o‘rtacha darajasi, moliyaviy resurslardan foydalanishning muqobil samaralari hamda yillik narx darajasidagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda aksiyalar bo‘yicha dividend belgilash amaliyoti orqali korxonada xodimlarning korporativ boshqaruvdagi faol ishtirokidan manfaatdorligini oshirish taklifi asoslangan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini korporativ boshqaruvida tarmoq xodimlariga qimmatli qog‘ozlar xaridida ustuvorlik berish asosida ularning nufuzli va yuqori daromadli aksiya egalariga aylanish imkoniyatlarini ta‘minlash orqali davlat ulushini tizimli ravishda kamaytirish va aksiyadorlarning keng guruhini shakllantirish taklifi asoslangan;

“O‘zdonmahsulot” AK rivojlanishining joriy tendensiyalari, davlatning tartibga soluvchi chora-tadbirlari, xorijiy investitsiyalar oqimi ta‘sirini e‘tiborga olgan ko‘p omilli ssenariylarni namoyon etuvchi ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kompaniya sof foydasining uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalar hajmiga, ustav kapitali hajmiga ta‘siri uchun regressiya-korrelyatsiya modeli ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvga ta‘sir etuvchi tashqi va ichki muhit omillarining ahamiyati aniqlangan;

“O‘zdonmahsulot” AK korxonalarida ESG omillarini joriy etish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

“O‘zdonmahsulot” AK da mulkchilik tuzilmasi, korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, aksiyadorlar bilan o‘zaro munosabatlar, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlar, strategiya, aksiyadorlar manfaatlariga rioya qilish, moliyaviy bo‘lmagan ma’lumotlarni oshkor qilish darajasi va sifati, moliyaviy axborotni oshkor qilish darajasi va sifati, xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimi, barqaror rivojlanish sohasidagi boshqaruv bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida ESOP mexanizmini joriy etish bosqichlari, investitsiyalarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlariga ESG omillarini kiritish algoritmi ishlab chiqilgan;

“O‘zdonmahsulot” AK korxonalarida joriy etish uchun taklif etilgan nomoliyaviy hisobotning namunaviy strukturasi hamda korporativ boshqaruvida ESOP mexanizmini joriy etish va qo‘llash jarayoni ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** korporativ boshqaruvni o‘rganuvchi olimlarning ilmiy qarashlarini tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan yondashuvlar usullarining asosiligi, shuningdek, axborot bazasining ishonchliligi hamda “O‘zdonmahsulot” AK da amaliy qo‘llash uchun taklif va tavsiyalarni sinovdan o‘tkazish bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi qoida va xulosalardan oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlariga oid nazariy-metodologik apparatlar va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy-uslubiy tavsifdagi takliflar va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga doir dasturiy hujjatlar, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmunini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

xodimlarning korxonadagi mehnat faoliyatining muayyan davri hamda korxonada ishlab chiqarish natija va yutuqlaridagi hissasidan kelib chiqqan holda ularni rag‘batlantirish ko‘rinishida aksiyalar taqdim etib borish orqali ishlab chiqarish va boshqaruvdagi ishtiroki faolligini oshirish taklifi “O‘zdonmahsulot” AK faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zdonmahsulot” AKning 2023-yil 13-apreldagi 17-3/33-302-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahsulot tannarxini o‘rtacha 4,7 foizga kamaytirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish imkoni yaratilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida tarmoq bo‘yicha dividendlarning o‘rtacha darajasi, moliyaviy resurslardan foydalanishning muqobil samaralari hamda yillik narx darajasidagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda aksiyalar bo‘yicha dividend belgilash amaliyoti orqali korxonada xodimlarining korporativ boshqaruvdagi faol ishtirokidan manfaatdorligini oshirish taklifi “O‘zdonmahsulot” AK faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zdonmahsulot” AKning 2023-yil 13-apreldagi 17-3/33-302-sonli

ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat byudjetiga yo'naltiriladigan dividendlar miqdorini 3,8 barobar oshirish imkoni yaratilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalari korporativ boshqaruvida tarmoq xodimlariga qimmatli qog'ozlar xaridida ustuvorlik berish asosida ularning nufuzli va yuqori daromadli aksiya egalariga aylanish imkoniyatlarini ta'minlash orqali davlat ulushini tizimli ravishda kamaytirish va aksiyadorlarning keng guruhini shakllantirish taklifi "O'zdonmahsulot" AK faoliyatiga joriy etilgan ("O'zdonmahsulot" AKning 2023-yil 13-apreldagi 17-3/33-302-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oziq-ovqat sanoati korxonalari ishchilarining mehnat unumdorligini 151,3 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

"O'zdonmahsulot" AK rivojlanishining joriy tendensiyalari, davlatning tartibga soluvchi chora-tadbirlari, xorijiy investitsiyalar oqimi ta'sirini e'tiborga olgan ko'p omilli ssenariylarni namoyon etuvchi ekonometrik model asosida ishlab chiqilgan 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari "O'zdonmahsulot" AK faoliyatiga joriy etilgan ("O'zdonmahsulot" AKning 2023-yil 13-apreldagi 17-3/33-302-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida strategik rejani ishlab chiqish va kompaniya rivojlanishining asosiy iqtisodiy yo'nalishlarini qayta shakllantirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta milliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda maqola, ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida 6 ta maqola va tezislar chop etilgan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, olib borilgan tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti, shuningdek, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rib chiqilib, tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Korporativ boshqaruvning nazariy va ilmiy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida korporativ boshqaruvning ilmiy-nazariy jihatlari va tamoyillari asoslab berilgan, ilmiy-uslubiy yondashuvlar va korporativ boshqaruv mexanizmining mohiyati tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirishning institusional va huquqiy asoslari belgilab berilgan, korporativ boshqaruv mexanizmlarini qo'llash bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba taqdim etilgan.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, korporativ boshqaruv samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisobiga aksiyadorlik kapitali qiymatini oshirish va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlariga rioya qilish kabi ikki asosiy vazifani hal qilishda muvozanatni saqlashga qaratilgan. Korporativ boshqaruvning asosiy elementlari 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Korporativ boshqaruvning asosiy elementlari<sup>6</sup>**

Korporativ boshqaruv korxonalarining muvaffaqiyatli ishlashida asosiy rol o'ynaydi. U kompaniyaning strategik yo'nalishlarini belgilaydi va faoliyatini nazorat qiladi. Korporativ boshqaruvni to'g'ri tashkil etish korxonaning samaradorligini oshirishga, uning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga va investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

Korporativ boshqaruv mexanizmi barcha manfaatdor tomonlar –aksiyadorlar, xodimlar, investorlar, mijozlar va umuman jamiyatning manfaatlarini himoya qilgan holda, kompaniya boshqaruvini samarali va shaffof qilishga qaratilgan<sup>7</sup>. Shaffoflik, axloqiylik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan korporativ boshqaruvni tashkil etish barqaror biznesni yaratishga, investorlar va jamiyat tomonidan ishonchni oshirishga, shuningdek, kompaniya uchun xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

Fikrimizcha, korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning to'liq va kengaytirilgan tavsifi uchun quyidagi jihatlarni e'tiborga olish mumkin:

1. Mas'uliyat va tegishli vakolatlarning aniq tizimini joriy etish: samarali korporativ boshqaruv mexanizmining asosiy jihati har bir ishtirokchining vazifalari va majburiyatlarini aniq belgilashdan iborat. Bu shuni anglatadiki, rahbarlar va xodimlar kompaniyadagi o'z vazifalarini va mas'uliyatlarini aniq tushungan holda faoliyat olib borishlari kerak. Aniqlik va ochiqlik asosida mas'uliyatni taqsimlash boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish, shaffoflikni oshirish va boshqaruvning turli bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

2. Aloqa kanallarini takomillashtirish: aloqa korporativ boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanib, kompaniyaning samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi vazifani

<sup>6</sup> Tadqiqotchi tomonidan adabiyotlar obzori asosida tuzilgan.

<sup>7</sup> Кодекс корпоративного управления РУз. Утвержден протоколом заседания Комиссии по повышению эффективности деятельности акционерных обществ и совершенствованию системы корпоративного управления от 31 декабря 2015 года. №9<https://davaktiv.uz/ru/menu/kodeks-korporativnogo-upravlenija>

bajaradi. Muntazam uchrashuvlar, ishchi guruhlar, elektron axborot almashish tizimlari va bloglar kabi aloqa kanallarini ishlab chiqish va takomillashtirish rahbariyat va xodimlarga axborotlarni almashish, muhim masalalarni muhokama qilish va ularga yechimlar ishlab chiqish va o'z harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

3. Axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash: kompaniyada axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Rahbariyat aksiyadorlar va manfaatdor tomonlarga kompaniyaning moliyaviy holati, strategik rejaları, biznesga ta'sir ko'rsatadigan hodisalar va boshqa muhim jihatlar to'g'risida ma'lumotlar olish imkoniyatini berishi kerak. Bu aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar bilan ishonchni mustahkamlash va aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

4. Siyosat va protseduralarni muntazam ravishda yangilash hamda moslashtirish: korporativ boshqaruv mexanizmini muvaffaqiyatli takomillashtirish uchun kompaniyaning siyosati va protseduralarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish va moslashtirish kerak. Strategik ustuvorliklar va biznes modellar manfaatdor tomonlarning talablarini tartibga soluvchi tashqi o'zgaruvchan shartlarga mos kelishi uchun ularni vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish talab qilinadi.

5. Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish: kompaniya korporativ boshqaruv sohasida o'z xodimlarini tayyorlash va rivojlantirishga sarmoya kiritishi mumkin. Rahbar va xodimlarni korporativ boshqaruv masalalari bo'yicha o'qitish, korporativ boshqaruv sohasidagi eng yaxshi kompaniyalarning tajriba va amaliyotlari bilan almashish, shuningdek, tashqi ekspertlarni jalb qilish boshqaruv sohasidagi bilim va vakolatlarini oshirish imkonini beradi.

Ushbu tadbirlar kompaniya tomonidan boshqaruvning yaxlitligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, korrupsiyani bartaraf etish, xatarlarni kamaytirish, manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish va kompaniyaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Korporativ boshqaruvning institusional asoslari qonunchilik va meyoriy hujjatlar, tartibga solish va nazorat organlari, shuningdek, korporativ boshqaruvning qabul qilingan amaliyoti va standartlarini o'z ichiga oladi. Ular aksiyadorlar va boshqaruv ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish mexanizmlarini belgilaydi va investorlar manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning zamonaviy holati va rivojlantirish tendensiyalari**" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston oziq-ovqat sanoatining integratsiyalashgan tuzilmalarida ("O'zdonmahsulot" AK misolida) korporativ boshqaruv mexanizmlarining tahlillari o'tkaziladi, oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tahlil qilinadi, korporativ boshqaruvning oziq-ovqat sanoati korxonalarida samaradorligiga ta'sirini baholash amalga oshiriladi.

O'zbekiston oziq-ovqat sanoati – iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri bo'lib, uning mamlakat YAIMdagi ulushi 13 % ni tashkil etadi. Ushbu sektor butun O'zbekiston eksportining 6,4 % va sanoat investitsiyalari umumiy hajmining 9,8 % ni tashkil etadi. Bundan tashqari, sektor O'zbekistondagi TXIning 4-yirik akseptori

hisoblanadi. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati har xil turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan yirik kompaniyalarning ham, faqat ma’lum turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan kichik korxonalarining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

“O‘zdonmahsulot” AK O‘zbekistonning non mahsulotlari sohasini namoyon etadi. “O‘zdonmahsulot” AK ishlab chiqarish tuzilmasi korporatsiya tarkibiga kiradigan hamda tayyorlov, un tortish-yorma, omuxta yem va non pishirish sohalariga ixtisoslashgan 44 ta korxonalar bilan namoyon etilgan.

“O‘zdonmahsulot” AK tarkibiga kiruvchi oziq-ovqat sanoati korxonalarining egalik qilish tuzilmasini aniqlash uchun mulkchilik tuzilmasini korporativ boshqaruv mexanizmlaridan biri sifatida tahlil qildik.

“O‘zdonmahsulot” AK tizimida mulkchilik tuzilmasining tahlili 14 ta korxonada “O‘zdonmahsulot” AK ustav kapitaliga o‘tkazilgan davlat ulushi 90 % dan ortiq, 5 ta korxonada 80 % dan ortiq, 2 ta korxonada 70%dan ortiq, 9 ta korxonada 60 % dan ortiq va 13ta korxonada 50 % dan ortiq ekanligini ko‘rsatdi. Bu “O‘zdonmahsulot” AKning barcha korxonalarida mulkchilik tarkibi yuqori darajada to‘planganligini bildiradi. Bunda tahlil biron-bir korxonada xorijiy investorning ulushi yo‘q ekanligini, ya’ni korxonalarni rivojlantirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilish holatlari bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Kuzatuv kengashi tarkibining tahlili kengashning barcha a‘zolari turli vazirlik va idoralardan saylangan davlat xizmatchilari ekanligini ko‘rsatadi. Bu respublikada amalda bo‘lgan korporativ boshqaruv siyosatiga mos kelmaydi. Demak, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, ustav kapitalida davlat ulushi 50% dan ortiq bo‘lgan jamiyat Kuzatuv kengashiga kamida bitta mustaqil a‘zo kiritilishi kerak, biroq kompaniya kuzatuv kengashining amaldagi tarkibida mustaqil a‘zo mavjud emas.


Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2021 – 2025-yillar uchun davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi”da davlat ulushiga ega xo‘jalik jamiyatlarining kuzatuv kengashlari tarkibidagi davlat xizmatchilarini bosqichma-bosqich qisqartirish va ularni Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolariga almashtirish nazarda tutilgan.

Korporativ boshqaruv mexanizmining amaldagi ichki audit xizmati shaklidagi tizimini o‘rganish natijasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom”ga mos emasligi aniqlandi va sertifikatga ega bo‘lgan kamida ikki ichki auditor bilan ichki audit xizmati xodimlarining sonini oshirish borasida tavsiyalar berildi.

Kompaniya faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib berish mexanizmini tahlil qilish asosida, ayni paytda kompaniyaning korporativ veb-saytida joylashtirilmagan, majburiy tarzda ochib berilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati aniqlandi.

“O‘zdonmahsulot” AK xo‘jalik va ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati sifatini baholash uchun “O‘zdonmahsulot” AK moliyaviy-iqtisodiy holati ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblari amalga oshirildi.

“O‘zdonmahsulot” AK un tortish sanoati sohasida xo‘jalik boshqaruvining yetakchi organi hisoblanadi va 2-rasmda ko‘rsatilganidek, 2021-yilda un ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati 95,3 %, 2022 yilda esa 88,9 % ni tashkil etdi.



**2-rasm. “O‘zdonmahsulot” AK korxonalarini tomonidan un ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlari<sup>8</sup>**

“O‘zdonmahsulot” AK tarkibiga kiruvchi ba‘zi un tortish korxonalarini xususiylashtirish 2021-yilga nisbatan un ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari pasayishining asosiy sababi hisoblanadi.

Foyda har qanday tijorat tashkilotining maqsadi, shuningdek, korxonalarda korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi natijasi hisoblanadi. Shu bois biz tomondan moliyaviy-iqtisodiy holat ko‘rsatkichlari, xususan, korxonalarining foyda ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval**

**“O‘zdonmahsulot” AK tarkibiga kiradigan korxonalar bo‘yicha foyda ko‘rsatkichlari<sup>9</sup>**

	Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022/2021 farq	
							(+, -)	b
1.	Tushum, mln so‘m	4087837,3	6366377,1	8062232,6	7132715,8	9614880,5	+2482164,7	1,4
2.	Tannarx, mln so‘m	3442107,9	5195412,5	6789560,5	6345680,5	8914993,9	+2569313,4	1,4
3.	Sotuvlardan foyda, mln so‘m	196156,8	519574,4	593931,2	218105,3	449832,5	+231727,2	2
4.	Sof foyda, mln so‘m, shu jumladan	162289,6	443963,5	481083,0	150291,1	357987,9	+207696,8	2,4
	- shuba korxonalarini	161047,8	425951,9	436317,7	126677,9	223359,2	+96681,3	1,8
	- “O‘zdonmahsulot” AK bo‘yicha	1 241,8	18011,6	44765,3	23613,2	134628,7	+111015,5	5,7

Ushbu ko‘rsatkichlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, 2022-yilda tushum 2021-yilga nisbatan 2482164,7 mln so‘mga oshgan, agar ushbu summalarni 2018-yil bilan

<sup>8</sup> “O‘zdonmahsulot” AK ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

<sup>9</sup> “O‘zdonmahsulot” AK ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

taqqoslasak, tushum 2,4 barobarga oshgan. Tannarx haqidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 1,4 barobar oshdi va bu mahsulot ishlab chiqarish tannarxining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sotishdan olinadigan foyda kompaniya ishining samaradorligini baholashning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatkichning o'sishi kompaniya avvalgiga qaraganda samaraliroq ishlayotganligini ko'rsatadi. Agar 2018-yil holatiga ko'ra sotishdan olingan foyda 196156,8 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib sotishdan tushgan foyda 4498,332,5 mln so'mgacha o'sdi, ya'ni 2,3 barobar oshdi. 2021 va 2022-yillarda sotishdan tushgan foyda o'rtasidagi farq +231727,2 mln so'mni tashkil etdi. Ko'rsatkichni sanoat bo'yicha tahlil qilish hamda sof foydani xo'jalik birlashmasi bo'yicha alohida ajratish maqsadida sof foyda ko'rsatkichlari butun sanoat bo'yicha va "O'zdonmahsulot" AK ijro apparati bo'yicha taqdim etilgan. Shunday qilib, soha bo'yicha sof foyda 2021-yilga nisbatan 2,4 ga oshdi va +207696,8 mln so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilda "O'zdonmahsulot" AK bo'yicha sof foyda 134628,7 mln so'mni tashkil etdi va bu 2021-yilga nisbatan 5,7 ga ko'pdir. Bu 2022 yilda kompaniya dividendlar ko'rishida 150,9 mlrd so'm daromad olganligi<sup>10</sup>, bu esa 2021 yilda kompaniya olgan daromaddan 3,8 barabarga ko'p ekanligi bilan izohlanadi.

"O'zdonmahsulot" AK moliyaviy holati uning foyda, rentabellik, likvidlik, pul oqimlarining barqarorligi va shu kabi moliyaviy natijalarini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar kompaniyaning aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qiymatni yaratish va saqlab qolish qobiliyatini belgilaydi. Umuman olganda, tahlil bizga kompaniyadagi moliyaviy barqarorlik, strategiya va nazorat, shuningdek, uning qonunchilik va regulyatorlar talablariga muvofiqligi to'g'risida foydali ma'lumotlarni taqdim etdi.

Korporativ boshqaruv va dividend siyosati o'zaro bir-biriga bog'liq. Kompaniya dividend siyosatining samaradorligini va uni tanlashning maqsadga muvofiqligini baholash uchun koeffitsiyent tahlili o'tkazildi (2-jadval).

## 2-jadval

### "O'zdonmahsulot" AK dividend siyosatining koeffitsiyent tahlili<sup>11</sup>

Ko'rsatkich	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2021-yilga nisbatan 2022-yil o'sish sur'ati
Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, mln so'm	29322,6	63511,9	42875,8	156649,9	3,7
Sof foyda, mln so'm	18011,6	44765,3	23613,2	134628,7	5,7
Hisoblangan dividendlar, mln so'm	9005,8	33573,9	17709,9	67314,4	3,8
Dividendning chiqishi, %	50 %	75 %	75 %	50 %	-25 %
1 aksiyaga dividendlar miqdori, so'm	13,89	51,83	27,34	88,78	3,2
Dividend stavkasi, %	1,4	5,1	2,7	8,8	3,3

<sup>10</sup> <https://new.openinfo.uz/organizations/521>

<sup>11</sup> "O'zdonmahsulot" AK ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

2022-yilda hisoblangan dividendlar miqdori 2021-yilga nisbatan 3,8 barobar ortdi va 49604,5 mln soʻmga oshdi. 2022-yilda hisoblangan dividendlar miqdori 67314,4 mln soʻmni, 2019-yilda esa 9005,8 mln soʻmni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan oʻsish surʼati 3,8 tashkil etdi va bu juda yaxshi yutuq hisoblanadi. Bunday oʻsishni dividend chiqishi koʻrsatkichi boʻyicha koʻrish mumkin.

Dividendning rentabelligi yoki dividendlarni toʻlash koeffitsiyenti – bu aksiyadorlarga dividendlar shaklida toʻlanadigan kompaniya sof foydasining foizi. Shunday qilib, “Oʻzdonmahsulot” AKda 2022-yilda dividendlarni toʻlash koeffitsiyenti 2021-yilga nisbatan 25 % ga kamaydi, biroq umuman olganda hisoblangan dividendlar miqdori 380 % ga oshdi. Bu esa kompaniya har yili doimiy ravishda 50-75 foiz miqdorida dividendlarni hisoblashidan darak beradi. Jamiyatning barcha aksiyalari davlatga tegishli boʻlganligi sababli barcha hisoblangan dividendlar Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga yoʻnaltiriladi.

Dividend stavkasi har yili kompaniya aksiyalari narxining qancha qismini naqd dividendlar bilan toʻlanayotganligini koʻrsatadi va u aksiyaning nominal qiymatiga dividendning aksiyaga nisbati sifatida hisoblanadi (odatda foizlarda ifodalanadi). Shunday qilib, 2022-yilda dividend stavkasi 8,8 %, 2021-yilda esa 2,7 % ni tashkil etdi, demak, 3,3 barobarga oshish sodir boʻlgan. Bundan dividendlar miqdori yetarli boʻlmasa-da, aksiyaning nominal qiymati hajmiga yaqinlashayotganligi haqida xulosa qilish mumkin. Kompaniyaning yanada jozibadorligini taʼminlash uchun dividend stavkasining yuqori qiymatini olish uchun bir aksiyaga dividend miqdorini oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, “Oʻzdonmahsulot” AK oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy-xoʻjalik faoliyati kompaniyaning ishlab chiqarish va moliya sohasini yetarlicha muvaffaqiyatli boshqarayotganidan dalolat beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun investitsion dasturlarini moliyalashtirish uchun uzoq muddatli majburiyatlarga kiradigan mablagʻlardan foydalanish, yakunlanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar zaxiralarini maqbullashtirishga intilish tavsiya etiladi.

Shuningdek, maʼlumotlardagi tendensiyalar va bogʻliqliklarni hisobga olish hamda oldingi kuzatishlar asosida tobe oʻzgaruvchining kelajakdagi qiymatlarini bashorat qilish imkonini beradigan hisob-kitoblar natijasida regression- korrelyatsion tahlil qilish modellari ishlab chiqilgan boʻlib, ular sof foydani oshirish uchun ustav kapitali va uzoq muddatli investitsiyalar miqdorlarini yuqori darajada saqlab qolishning muhimligini, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, shuningdek, mahsulot tannarxini pasaytirish zaruratini koʻrsatadi.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbekiston oziq-ovqat sanoatida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning yoʻllari”** deb nomlangan uchinchi bobida korporativ boshqaruvning maqbul modeli ishlab chiqilgan va oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishning istiqbol koʻrsatkichlari belgilangan, oziq-ovqat sanoat korxonalarida ESG mezonlarini joriy etish asosida korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish boʻyicha oziq-ovqat sanoati korxonalarini tomonidan korporativ boshqaruvda ESOP mexanizmini joriy etish va qoʻllash yuzasidan chora-tadbirlar taqdim etilgan.

“Oʻzdonmahsulot” AK misolida oziq-ovqat sanoati korxonasi uchun maqbul korporativ boshqaruv modelini ishlab chiqish uchun, birinchi navbatda, korxonaning korporativ boshqaruviga taʼsir etuvchi tashqi va ichki omillarni hisobga olish kerak.

Moliyaviy-iqtisodiy holat – tashkilot resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Tashkilotning moliyaviy barqarorligi modellariga qarab, xo‘jalik tusidagi faoliyatning haqiqiy shartlarini hisobga olgan holda moliyaviy natijalar istiqboli talab qilinadi.

Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish jarayoni tashkilot raqobatbardoshligining muhim tarkibiy qismi va muhim omili hisoblanib, ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha ishlab chiqarish, boshqaruv, iqtisodiy, axborot, motivatsion jihatlarini qamrab oladi. “O‘zdonmahsulot” AK uchun texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiya qilish, mahsulot sifatini boshqarish xalqaro standartlarini joriy etish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini va tannarxini pasaytirish dolzarb hisoblanadi.


“O‘zdonmahsulot” AK korporatsiya hisoblanishi va aksiyadorlar kapitalidan foydalanishi sababli, dividend siyosati uning boshqarilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. “O‘zdonmahsulot” AKda aksiya daromadlarining qabul qilib bo‘lmaydigan darajada pastligi va kapitalning past rentabelligi tufayli dividend siyosatining omili dividend siyosatining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Nazariya va amaliyotdan ma’lumki, dividend siyosati bo‘yicha meyoriy hujjatlarning qabul qilinishi kompaniya rahbariyati harakatlarining shaffofligini oshiradi va uni investorlar uchun yanada jozibador qiladi, ya’ni korporativ boshqaruvni takomillashtirishga yordam beradi.

Korporativ munosabatlar tizimini takomillashtirish korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish va korporatsiyani boshqarishda aksiyadorlarning rolini oshirishga yordam beradi.

Tashqi omillarning, masalan, davlatning narxlash tizimining korporatsiya faoliyatiga ta’siri haqida so‘z borganda, korporatsiya tomonidan ma’lum bir bozor ulushini egallash va davlat ishtirokida yaratiladigan integratsion tuzilmalar yordamida amalga oshirilishini qayd etib o‘tish joiz. Ushbu omillar, ayniqsa, oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyo yetkazib beradigan agrar sektori uchun muhimdir.

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligining agrar sektori mahsulotlariga bog‘liqligi, sarflanadigan resurslar va iqlim sharoitlarining o‘simlikshunoslik natijadorligiga ta’siri iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligiga nisbatan davlat tomonidan muvozanatli siyosatni amalga oshirish zaruratini belgilovchi asosiy sabablarga kiradi. Un narxining oshishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun un ishlab chiqarishda bug‘doyning belgilangan ulgurji narxi o‘rnatiladigan davlat narxlash tizimi korxonalar xarajatlarining pasayishiga va natijada korxonalar daromadlarining oshishiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Hukumatining davlat buyurtmasi asosida don sotib olish davlat tomonidan tartibga solish choralariga misol hisoblanadi. Navli un ajratilgan fondlar va tuzilgan shartnomalar bo‘yicha birja savdolari orqali sotiladi.

Oziq-ovqat sanoati kompaniyalarida korporativ boshqaruvga ichki va tashqi omillarning ta’sirini o‘rnatish va aniqlash uchun biz ekspertlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazdik va olingan ma’lumotlar tahlil qilinganda, ekspertlar ishlab chiqarish faoliyati, investitsiya siyosati va dividend siyosati, shuningdek, tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy holatini eng ahamiyatli omillar deb atashlarini, ya’ni tashqi omillarga nisbatan ichki omillarga ustunlik berilayotganligini ta’kidlab o‘tamiz. Ushbu tanlov tashqi omillardan farqli o‘laroq, ichki omillarga ta’sir qilish imkoniyati bilan izohlanadi. Biz tomondan davlat aktivlarini qisqartirish va sanoat ustidan nazoratni ta’minlash nuqtai nazaridan maqbul bo‘lgan korporativ boshqaruv modeli taklif qilindi (3-rasm).



3-rasm. Tashqi va ichki muhit omillar ta'sirini hisobga oladigan, oziq-ovqat sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning maqbul modeli ("O'zdonmahsulot" AK misolida)<sup>12</sup>

<sup>12</sup> Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqildi.

